

## ТОПИШМОQLARNING SEMANTIK TUZILISHI

*Kabulova Umida Sayidmaxamadovna - ADCHTI**Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası*

**Annotatsiya:** Mantiqiy-semantik yondashuv topishmoqlarning ichki, rasmiy va mazmuniy tuzilishiga kirib borish, ularning olam manzarasini qayta qurish va chuqur mifologik darajasini ochishdagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Strukturaviy paremiologiya asoschilaridan biri G.L.Permyakovning fikricha, topishmoqlarning universal mantiqiy modellari mavjud bo'lib, ularga tashqi va ichki tuzilishining cheksiz xilma-xilligi asosiga qurilgan modellar va ularni yechishning mantiqiy usullari topishmoqlarni tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** *shifrlangan obyekt, sirli obyekt, intensiv kengayishi, krossvord, mantiqiy-semantik.*

Topishmoqning semantik tuzilishi uning uchta asosiy tarkibiy qismining nisbati bilan belgilanadi:

belgilash, ya'ni taxmin qilinadigan va shifrlangan obyekt;

sirli obyekt bilan umumiy bo'lgan ba'zi bir xususiyatlarga ega bo'lgan o'rinbosar obyekt va "tasvir", ya'ni ikkala ob'ektga bir vaqtning o'zida qo'llaniladigan tasvir. Masalan, "*Og'a-ini ming botir Ko'm-ko'k gilamda yotur*" (Osmon va yulduzlar) topishmog'ida "osmon, yulduzlar" taxmin qilingan, "*Ko'm-ko'k gilam*" (osmon) va "*Og'a-ini ming botir*" (yulduzlar)<sup>1</sup>.

Arastu davridan boshlab sharq mumtoz adabiyotshunosligida, asosan, bir xil, ya'ni ko'chim turi sifatida tushunilgan hodisa XX asrning 20-yillaridan boshlab "ijodkor erki va ozodligi, uning intensiv kengayishi bilan dunyoni metaforik qabul qilish vositasi" (O.Mandelstam) sifatida qabul qilinadigan bo'ldi<sup>2</sup>.

Topishmoqlar ikkilamchi nominatsiya sifatida oldin nomlangan narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar va harakat-holatlarni qayta nomlaydi<sup>3</sup>. U, dastavval, metafora tarzida, qolaversa, jonli nutqning turli xil ko'rinishlari sifatida qo'llanadi. Metafora – yashirin qiyoslashga imkon beradi, o'zidan nihoyatda olisda bo'lgan narsa, hodisa, harakatni solishtiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, rus xalqining o'zi topishmoqlarni juda o'rinli ta'rifladi<sup>4</sup>: "*O'zi yuzsiz niqobda*".

Demak, topilgan javobdagi narsa "yuz" – "niqob" ostiga yashirinadi. Masalan: *Qorong'u zindonda qizlar ipsiz, ignasiz bo'z to'qishyapti.* – Arilar, ari uyasi, asalari

<sup>1</sup>Abduxalilova X. Topishmoqlarning tarkibiy va semantik tipologiyasi.//Amaliy lingvistika va adabiyotshunoslik muammolari. – Toshkent, 2020.

<sup>2</sup>Метафора в языке и тексте. –Москва, 1988.

<sup>3</sup>Кобулжонова Г. Метафоранинг системавий-лисоний талқини. Номз.дисс. автореферати. –Тошкент, 2000. –В.7.

<sup>4</sup>Русские народные загадки, пословицы, поговорки. – Москва: Наука, 1990.

mumi. Bunda, *arilar* → *qizlarga*, *ari uyasi* → *qorong‘u zindonga*, *asalari mumi* → *bo‘zga* o‘xshatilgan; *Besh kampir*, *Besh kampirning orqasida besh muz yopishib turibdi*. – Qo‘l, barmoqlar, tirnoqlar (o‘zb.t., 50-bet). Bu yerda *qo‘l barmoqlari* → *besh kampirga*, *tirnoqlar* → *muzga* solishtirilgan. Topishmoqlarning bunday turlari – keng yoyilgan metafora sanaladi.

Mantiqiy-semantik yondashuv topishmoqlarning ichki, rasmiy va mazmuniy tuzilishiga kirib borish, ularning olam manzarasini qayta qurish va chuqur mifologik darajasini ochishdagi ahamiyatini aniqlash imkonini berdi<sup>5</sup>.

Strukturaviy paremiologiya asoschilaridan biri G.L.Permyakovning fikricha, topishmoqlarning universal mantiqiy modellari mavjud bo‘lib, ularga tashqi va ichki tuzilishining cheksiz xilma-xilligi asosiga qurilgan modellar va ularni yechishning mantiqiy usullari topishmoqlarni tasniflash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Topilishi lozim bo‘lgan voqelik obyekt – enigmat, uni ro‘yobga chiqaruvchi muayyan matn esa enigmator deb yuritiladi<sup>6</sup>. “Enigma” so‘zi (*grekcha* “ainigma” ba‘zi manbalarda *lotincha*) “jumboq”, “boshqotirma”, “yashirin, sirli topshiriq” ma‘nolariga mos keladi<sup>7</sup>, bu esa undan tegishli tavsifiy burilishlarning o‘rmini bosadigan qulay atamalarni yaratishda foydalanish imkonini beradi.

Topishmoqlar matni gaplardan iborat bo‘lgani uchun ularni hech ikkilanishsiz matn deb atay olamiz. Krossvordlarni shakliy jihatdan o‘z ichiga harf, raqam va grafik jadvallarni olgani uchun ham matn deb atash to‘g‘ridir.

*Krossvord* – inglizcha so‘z bo‘lib, *kross*—“kesishma”, *vord*—“so‘z” degan ma‘nolarni anglatadi. Krossvord – kataklarni harflar bilan to‘ldirib, shu kataklarga yashirilgan, izlanayotgan so‘zni topish o‘yini yoxud boshqotirmadir<sup>8</sup>.

Aytishimiz mumkinki, krossvordlar o‘zining “yoshligi” tufayli topishmoqqa xos alohida tur hisoblanadi. Chunki krossvord matni ham “savol” va “javob” qismlariga bo‘linadi, ya‘ni enigmatorida yashirin obyekt aniq nomlanmagan va tavsif matni obyektini to‘liq shaklda ifoda etmagan bo‘ladi. Shunga asoslanib, jumboqli matnlarning yana bir ko‘rinishi hisoblangan topishmoqlardagi kabi krossvordlar ham ikki qism: enigmat (qidirilayotgan so‘z) va enigmator (yashirin obyekt tavsifi)dan iborat bo‘ladi<sup>9</sup>, deb aytishimiz mumkin<sup>10</sup>.

<sup>5</sup> Квятковский А.П. Советская энциклопедия. – Москва, 1966. – С. 376; Митрофанова, V.V. Русские народные загадки. – Л., 1968. – С. 180.

<sup>6</sup> Денисова Е.А. Структура и функции энigmatического текста: дисс.канд.филол.наук. – Москва, 2008. – С.12; Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 33.

<sup>7</sup> Словарь иностранных слов. Гос. издательство иностр. и нац. словарей. – Москва, 1955. – 814 с.

<sup>8</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. К ҳарфи. – Тошкент: ЎМЭ. – Б. 418.

<sup>9</sup> Денисова Е.А. Структура и функции энigmatического текста: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – С. 90.

<sup>10</sup> Якубова Н. Жумбоқли матнларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари. – Қўқон, 2022. – Б. 19.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduxalilova X. Topishmoqlarning tarkibiy va semantik tipologiyasi//Amaliy lingvistika va adabiyotshunoslik muammolari. – Toshkent, 2020.
2. Метафора в языке и тексте. – Москва, 1988.
3. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий-лисоний талқини. Номз.дисс. автореферати. – Тошкент, 2000. – В.7.
4. Русские народные загадки, пословицы, поговорки. – Москва: Наука, 1990.
5. Квятковский А.П. Советская энциклопедия. – Москва, 1966. – С. 376.
6. Митрофанова, V.V. Русские народные загадки. – L., 1968. – С. 180.
7. Денисова Е.А. Структура и функции энигматического текста: дисс.канд.филол.наук. – Москва, 2008. – С.12;
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 33.
9. Словарь иностранных слов. Гос. издательство иностр. и нац. словарей. – Москва, 1955. – 814 с.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. К ҳарфи. – Тошкент: ЎМЭ. – Б. 418.